

O'QUVCHILARNING KREATIV SIFATLARINI RIVOJLANTIRISHDA
PINBORD CARDS USULIDAN FOYDALANISH

Abdushukurova Nazokat Abdug'affor qizi

Toshkent KIMYO xalqaro universiteti II-bosqich magistranti.

asalaabdushukurova@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14994725>

Annotation. Ushbu maqolada ijodkor o'quvchining shakillanishiga turki bo'ladigan pedagogik xususiyatlari keltirib o'tilgan. P.Torrensning kreativlikni baholash uchun bir qancha fikrlari yoritilgan.

Kalit so'zlar: Kreativlik, pedagogik xususiyatlari ,P.Torrens, tanqidiy fikrlash, pinbord cards.

Аннотация. В данной статье приведены педагогические особенности, способствующие формированию творческого ученика. Несколько идей Торренса для оценки креативности освещены.

Ключевые слова: креативность, педагогические особенности, Торренс, критическое мышление, карточки для досок

Abstract. This article presents the pedagogical features that contribute to the formation of a creative student. Several of Torrence's ideas for evaluating creativity are highlighted.

Keywords: creativity, pedagogical features, P.Torrens, critical thinking, pinbord cards.

Ta'lrim jarayonida kreativlik, ya'ni ijodkorlik sifatlar, bolalarning fikrlash jarayonlarini tizimli olib borishda yangi g'oyalarni ishlab chiqishida muhim omil hisoblanadi. Bu esa o'quvchilarning jamiyatga foydali, innovatsion fikrlovchi shaxs bo'lib ulg'ayishida asosiy dastak bo'lib xizmat qiladi. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasida "Uzluksiz ta'lrim tizimini yanada takomillashtirish, sifatli ta'lrim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, yosh avlodning ijodiy va intellektual salohiyatini qo'llab-quvvatlash va ro'yobga chiqarish"¹ kabi ustuvor vazifalar belgilab berilgan. Shunga ko'ra har bir o'quvchining shaxsiy imkoniyatlarini inobatga olib uni yanada rivojlantirish va olgan bilimlarini amaliy holda qo'llay olishi uchun zamin yaratish bir so'z bilan aytganda jamiyatning faol a'zosiga aylantirish hozirgi kun pedagogning asosiy vazifasi hisoblanadi.

¹ Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017-йил 7-февралдаги "Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар Стратегияси тўғрисида"ги ПФ-4947-сон Фармони // Ўзбекистон Республикаси қонун хужжатлари тўплами, 2017 й., 6-сон, 70-модда.

Ma'lumki shaxs rivojlanishida o'ziga hoslik, biror bir muamoga noodatiy yondashish, har bir voqeа hodisaga o'zining mustaqil fikrini bildira olish ko'nikmalarini rivojlantirgan inson ko'pgina natijalarga erisha olishi mumkin.

O'quvchilarning kreativ sifatlarini oshirishdan ko'zlangan maqsad, ularning ijodiy fikrlashlarini oshirish, muammolarni yangi o'ziga xos yo'nalishda hal qilish ko'nikmalarini rivojlantirish, o'quv jarayonidagi faolligini ko'paytirish, tassavurini boyitishdan iborat. Shu o'rinda ta'lim jarayonida ijodkor o'quvchini rivojlantirish masalasi yuzaga keladi. Ijodkorlik – bu shaxsnинг asl mahsulot yoki yechim topish istagi. Istak va tasavvur hissi ijodkorlikning asosiy so'zlaridir. Sternberg va Lubart (1998) fikrlariga ko'ra, faqat ijodkorlik uchun o'ziga xoslik yetarli emas. Torrance (1988) esa ijodkorlikni quyidagicha ta'riflagan: "Qiyinchiliklar, muammolar, ma'lumotlardagi bo'shlqlar, yetishmayotgan elementlar, qandaydir qiyshiq narsalarni sezish jarayoni: bu kamchiliklar haqida taxmin qilish va gipotezalarni shakllantirish; bu taxmin va gipotezalarni baholash va tekshirish; ehtimol ularni qayta ko'rib chiqish va qayta sinovdan o'tkazish va nihoyat natijalarni e'lon qilish"².

Kreativ fikrlash va kundalik hayotdagи muammoni topish hamda ularni hal qila olish ko'nikmasini qaysi davlat o'quvchilarida yuqori ekanligini quyidagi statistik ma'lumot orqali bilishimiz mumkin. Singapur, Koreya, Kanada, Avstraliya, Yangi Zelandiya, Estoniya va Finlyandiya ijodiy fikrlash bo'yicha eng yuqori natijalarga erishgan ta'lim tizimiga ega davlatlar hisoblanadi. Ma'lumotga ko'ra ushbu davlatlar o'rtacha 36 ball yoki undan yuqori toplashadi. OECD o'rtacha ko'rsatkichidan ancha yuqori (33ball). Singapurlik o'quvchilar ijodiy fikrlash bo'yicha o'rtacha 41 ball toplashadi³.

O'quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish quyidagi tamoyillarga asoslanib amalga oshiriladi.

- 1.Ijodiy faoliyat uchun motivatsiyani rivojlantirish prinsipi;
- 2.O'z-o'zini tarbiyalash va o'z-o'zini o'qitish ko'nikmalarini rivojlantirish prinsipi;
- 3.Ijodiy faoliyatning ustuvorligi prinsipi;
- 4.Pedagogik jarayonni va o'quvchilarning individual xususiyatlarini muvofiqlashtirish prinsipi;
- 5.O'quvchilarning mustaqilligi va ijodini ta'minlaydigan ta'lim shakllarini tanlash prinsipi;


² Muhammadjonova Feruzaxon Rustamjon qizi Muhammadjonova O'g'iloy Baxodirjon qizi MAKTAB O'QUVCHILARIDA IJODKORLIKNI SHAKLLANTIRISHDA PEDAGOGLARNING O'RNI VA ROLI/JOURNAL OF INNOVATIONS IN SCIENTIFIC AND EDUCATIONAL RESEARCH VOLUME6,T-2023 22-b

³<https://www.maplebear-cee.com/pisas-new-measure-of-creative-thinking-in-education-and-canadas-leading-position/#:~:text=On%20average%20across%20OECD%20countries,at%20or%20above%20Level%204>

- ijodiy maqsadni belgilash va o‘z faoliyatini unga erishish uchun bo‘ysundirish qobiliyati;
- o‘z faoliyatini rejalashtirish,
- o‘z-o‘zini boshqarish qobiliyati;
- muammoni topish va hal qilish qobiliyati;⁴

Aynan mana shu fazilatlar o‘quvchilarning ijodiy salohiyatini yuzaga chiqarish uchun zarurdir.

Xalqaro statistika ma’lumotlariga ko’ra o‘qituvchilarni kreativligini rivojlantirish uchun zamonaviy vositalar bilan ta’minalash 25,9% zarur deb hisoblashadi. O’quv dasturini takomillashtirish esa 19,8% ni tashkil qiladi⁵.



Ta’lim oluvchilarni kreativlikni sifatlarini baholash uchun E.P.Torrens tomonidan 1987-yilda asoslangan shaxsning kreativ tafakkurga egaligini aniqlovchi testni tahlil qilishimiz mumkin. Mazkur test shaxs kreativligi va uning darajasini ijodiy faoliyatni tashkil etishdagi faollik, tezkor fikrlash, o‘ziga xos (original)lik va takomillashganlik kabi mezonlar bo‘yicha baholash imkoniyatini yaratadi. O’quvchi tomonidan tavsiya etilgan savollarga beriladigan javoblar aynan mana shu to’rtta mezonni qanoatlantirishi lozim. E.P. Torrens fikricha, “kreativlik” tushunchasi negizida quyidagilar yoritiladi⁶:

- muammoni yoki ilmiy farazlarni ilgari surish;
- farazni tekshirish va o‘zgartirish;
- qaror natijalarini shakllantirish asosida muammoni aniqlash;

⁴ Muhabbat URALOVA O‘quvchilarda ijodiy faoliyatni shakllantirishda texnologiya fanining o‘rnini/Жамият ва инновациялар – Общество и инновации – Society and innovations Special, T-2022, 358-b

⁵ <https://www.linearity.io/blog/creativity-statistics/>

⁶ Bahtiyor Siddiqov, Erkin Abdullayev Talabalarda kreativlikni rivojlantirish/Society and innovations,T-2021 360-b

– muammo yechimini topishda bilim va seminar harakatlarning o‘zaro qaramaqshiliga nisbatan ta’sirchanlik.

Pinbord kartalari usuli (Pinboard Cards)

Pinbord (ing: pin – mahkamlash, board – yozuv taxtasi) munozara usullari yoki o’quv suhbatini amaliy usul bilan moslashdan iborat. Bu usul yordamida bayon etilgan muammoni yechishga o‘z nuqtai nazari bilan yondashish, ommaviy to’g’ri tashkil etilgan aqliy hujumni tashkillashtirish imkoniga ega bo’lish mumkin. O’quvchilar turli g’oyalarni taklif etadilar, muhokma qiladilar, baholaydilar shu bialan birga eng maqbul samarali g’oyalarni tanlab, qog’ozchaga 2 ta so’zdan ko’p bo’lmagan g’oyalarni yozib yozuv taxtasiga biriktiradilar. So’ngra guruh a’zolaridan ishtirokchi chiqib aniq, xato yoki qaytarilgan g’oyalarni saralaydilar.

Tizimlashtirish mumkin bo’lgan g’oyalarni topadilar va belgilydilar shu belgi bo'yicha hamma g'oyalarni yozuv taxtasida guruuhlaydilar⁷. Ushbu keltirilgan usul orqali ta'lim oluvchilarning fikrlash ko'nikmalarini o'stirishga erishiladi.

REFERENCES

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017-йил 7-февралдаги “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар Стратегияси тўғрисида”ги ПФ-4947-сон Фармони // Ўзбекистон Республикаси қонун хужжатлари тўплами, 2017 й., 6-сон, 70-модда.
2. Muhammadjonova Feruzaxon Rustamjon qizi Muhammadjonova O‘g‘iloy Baxodirjon qizi MAKTAB O‘QUVCHILARIDA IJODKORLIKNI SHAKLLANTIRISHDA PEDAGOGLARNING O‘RNI VA ROLI/JOURNAL OF INNOVATIONS IN SCIENTIFIC AND EDUCATIONAL RESEARCH VOLUME6,T-2023 22-b
3. <https://www.maplebear-cee.com/pisas-new-measure-of-creative-thinking-in-education-and-canadas-leading-position/#:~:text=On%20average%20across%20OECD%20countries,at%20or%20above%20Level%204>
4. Muhabbat URALOVA O‘quvchilarda ijodiy faoliyatni shakllantirishda texnologiya fanining o‘rni/Жамият ва инновациялар – Общество и инновации – Society and innovations Special, T-2022, 358-b
5. <https://www.linearity.io/blog/creativity-statistics/>

⁷ https://abiturtest.uz/mavzular/talimning-pinbord-usulitexnikasi/#google_vignette

6. ¹Bahtiyor Siddiqov, Erkin Abdullayev Talabalarda kreativlikni rivojlantirish/Society and innovations,T-2021
7. 360-b
8. https://abiturtest.uz/mavzular/talimning-pinbord-usulitexnikasi/#google_vignette.